

## Hamkorlar

«Irrigatsiya va melioratsiya» kafedrasida soha bo'yicha ishlab-chiqarish bilan uzviy aloqasini ta'minlash, talabalarga bilim berish va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda kafedra moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek o'quv va ishlab-chiqarish amaliyotini tashkil qilish bo'yicha Chirchiq-Oxangaron ITHB, TIQXMMI qoshidagi ISMITI, Moliya vazirligi qoshidagi SEMHYa jamg'armasi, "UZGIP" MChJ, "O'zsuvloyiha" AJ bilan hamkorlik qilmoqda.

Kafedra mutaxassislik ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar: Chirchiq - Oxangaron irrigatsiya tizimi xavza boshqarmasi va TIQXMMI qoshidagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy - tadqiqot instituti bilan ilmiy-texnologik muammolar va ularni yechimini izlash bo'yicha innovatsion hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Yevropa Ittifoqining Erasmus Mundus dasturi bo'yicha 2019 yilda Fransiyaning Lill Universiteti (Universite de Lille) da kafedra xodimi Bekmirzaev G'. (ilmiy rahbarlari: Lill 1 Universiteti professori OUDDANE Baghdad va XAMIDOV Muxammadxon Xamidovich, TIQXMMI professori) "Sho'rlangan tuproqlar va qurg'oqchilik sharoitlaridasabzavot o'simliklarining o'sib rivojlanishi, mineral tarkibi, fotosintez jarayoni va suv istemoliga ta'siri" ("Effect of saline soils and drought conditions on growth, mineral composition, photosynthesis and water relations of vegetable crops") mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini ximoya qildi va PhD diplomini oldi.

Erasmus+ loyihasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Gumboldt nomidagi Berlin universiteti (Germaniya) kredit mobillik loyihasi doirasida tanlov g'olibi "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida tayanch doktoranti J.K.Ishchanov va assistenti I.Urazbaev 2019 yilning 16 apreldan 14 iyulgacha Germaniyaning Gumboldt nomidagi Berlin universiteti o'z malakalarini oshirdilar.

Erasmus+ ning kredit mobillik loyihasi doirasida tanlov g'olibi "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida dotcenti, Hidromelioratsiya fakulteti dekanı Matyakubov B.Sh. 2019 yilning 25 iyunidan 1 iyulgacha Germaniya davlatining Shtutgard shtatidagi Hohenheim universitetida Irrigatsiya va inqilobiy sohasida trening dasturlarini o'tkazdi hamda tajriba almashib keldi.

Germaniya Leibniz qishloq xo'jaligi landshaft ilmiy tadqiqot markazi bilan hamkorlikda «Irrigatsiya va melioratsiya» kafedrasining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun Germaniya Federativ Respublikasining Ta'lim va Fan Vazirligi (BMBF) tomonidan moliyalashtirilayotgan BioWat: "Iqlim o'zgarishiga moslashish maqsadida Markaziy Osiyoning sho'rlangan va qurg'oqchil hududlarida resurslarni boshqarish (Resources management in the salinized and drought stress-endangered irrigation areas of Central Asia for adapting to climate change)" ilmiy loyihasi doirasida zamonaviy yuqori aniqlikdagi, raqamli laboratoriya jihozlari olib kelindi va ulardan foydalanish natijasida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining ishonililigini oshiradi.